



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026

“BOBURNOMA” ASARIDA KURASH VA PAHLAVON KURASHCHILAR TASVIRI

THE PORTRAIT OF WRESTLING AND WRESTLERS IN THE WORK OF “BABURNAMA”

Tog‘ayev To‘lqin Mamanazarovich

Filologiya fanlari nomzodi,

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti

E-mail: tm-togay@mail.ru

ORCID: 0000-0002-0809-3198

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./UOCY1280](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./UOCY1280)

Annotatsiya. *Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida kurash, kurash musobaqasi va kurashchi polvonlar siymosining tasvirlanishi, muallifning bu jismoniy xalq o‘yiniga munosabatiga bag‘ishlangan. Boburning kurashga faqat jismoniy kuch sinovi emas, balki mardlik, chapdastlik va iroda namoyishi, kurash musobaqalariga harbiy jangovorlikni oshirish vositasi sifatida qarashlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *kurash, pahlavon, kushtigir, kushtigirliq, miyongirliq, bo‘ka.*

Annotation. *The article is devoted to the description of wrestling, wrestling competitions and wrestlers in Zahiriddin Muhammad Babur's work "Boburnoma", as well as the author's attitude to this physical folk game. Babur's view of wrestling is not only a test of physical strength, but also a demonstration of courage, dexterity and willpower, and wrestling competitions are considered a means of increasing military combat effectiveness.*

Keywords: *wrestling, wrestler, struggle, kushtigir, kushtigirlik, buka*

“Boburnoma” nafaqat o‘zbek mumtoz adabiyoti nasriy asarlarining yetuk namunasi, balki o‘z mazmun-mundarajasiga ko‘ra jahon yozma yodgorliklari sirasida noyob hodisa sanaladi. Darhaqiqat, akademik V.V.Bartold qayd etganidek, “Boburnoma” faqat siyosiy kurashlar hujjatigina bo‘lib qolmay, XV asrdayoq haqqoniy ravishda turkiy nasrning mumtoz realistik namunasi deb tanilgan yodgorlikdir [Hasanov, 2011:55].

O‘z davrdagi Markaziy Osiyo, Hindiston, Afg‘oniston, Eronning xalqlari tarixini, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy hayotini, savdo aloqalarini, geografiya, hayvonot va o‘simlik dunyosini, iqlimi, qabila va elatlarlarning etnografiyasi: turmush tarzi, urf-odatlar va marosimlarini aks ettirgan bu qomusiy asar qimmatbaho ma’lumotlar manbai sifatida salkam besh asrdan buyon turli soha olimlarini, ilm-ma’rifat ahllarini bahramand qilib kelmoqda. Shu sababdan «Boburnoma» XVI asrdan boshlab fors, golland, fransuz, ingliz, nemis,

italyan, rus, hind, turkiy tillariga tarjima qilingan. Hozirda qirqdan ortiq millat “Boburnoma”ni o‘z ona tilida mutolaa qilmoqdalar.

Ma’lumki, Bobur taxtga o‘tirgan 12 yoshidan umrining oxirigacha siyosiy kurashlar, turli jang-jadallar, harbiy yurishlarni boshidan kechirdi. Ular alamli mag‘lubiyatlardan xoli bo‘lmagan, ammo g‘oliblik onlari ko‘proq bo‘lgan. “Boburnoma” nafaqat siyosiy voqyealar va harbiy yurishlar, balki o‘sha davrning madaniy hayoti, xalq an‘analari va jismoniy tarbiya turlari, turli xalq o‘yinlari haqida ham qimmatli ma’lumotlar beradi. Shu jihatdan, asarda kurash va kurash tushuvchi polvonlar haqidagi lavhalar alohida ahamiyatga ega.

“Boburnoma”da kurash xalq orasida keng tarqalgan, bayramlar, to‘ylar va turli katta-kichik yig‘inlarda o‘tkaziladigan, uyushtiriladigan nufuzli musobaqa, ko‘ngilochar namoyish sifatida tilga olinadi. Bobur kurashni faqat jismoniy kuch sinovi emas, balki mardlik, chapdastlik va iroda namoyishi deb qaraydi. Kurash musobaqalari orqali yigitlarning san‘ati, kuch-g‘ayrati, jasorati, sabr-toqati va raqibga bo‘lgan hurmati namoyon bo‘lgan.

Asarda kurash tushuvchi polvonlar kuchli, baquvvat, dovyurak va xalq orasida hurmat qozongan shaxslar sifatida tasvirlanadi. Bobur ayrim hollarda mashhur polvonlarni nomma-nom tilga oladi yoki ularning janglardagi mahoratini ta’riflaydi. Polvonlar nafaqat jismoniy kuchi, balki odobi, halol kurashi va g‘ururi bilan ham ajralib turgan.

Bobur amakisi Samarqand hukmdori Sulton Ahmad mirzoning amirlari haqida ma’lumot berar ekan, shunday bitadi: “Jonibek do‘ldoy edi ... Sulton Abusaid mirzo Samarqand hukumatini va Sulton Ahmad mirzo o‘z eshigining ixtiyorini munga berib edi, muni eshik oqo qilib edi. G‘arib axloq va atvorliq kishi ekandur. Andin g‘arib nimalar xili rivoyat qilurlar. Ul jumladin biri budurkim, Samarqand hokimi ekan fursatlar o‘zbakdin elchi kelur, o‘zbak ulusida bu elchi zo‘rg‘a mashhur ekandur. O‘zbek zo‘r kishini bo‘ka der emish. Jonibek derkim: bo‘kamusen, bo‘ka bo‘lsang, kel kurashaling. Bu elchi har necha muzoyaqa qilur, qo‘ymas, kurashurlar, Jonibek yiqar. Mardona kishi erdi [Zahiriddin Muhammad Bobur, 1960:77].

Ko‘rinadiki, podsholikda eng katta amaldorlardan bo‘lgan qiziq xulqli Jonibek do‘ldoy Shaybonixonidan elchi bo‘lib kelgan bir kishini oti chiqqan kurashchi polvon ekanini bilib, uzrgohligiga boqmay, qo‘yarda-qo‘ymay kurash u bilan kurash tushib yiqitgan ekan. Bu fakt ham o‘sha davrda oliy martabali kishilar ham kurash san‘atini egallaganliklarini ko‘rsatadi. Bunga yana bir yorqin misol Pahlavon Muhammaddir. Bobur sulton Husayn Boyqaro haqida, uning vazirlari, shoirlari to‘g‘risida ma’lumot berganda, buni ham yozadi: “Yana benazir eldin bir Pahlavon Muhammad Busaid edp. Kushtigirliqta xud saromad edi, she'r ham aytur edi. Savt va naqshlar bog‘lar edi: “Chorgoh”da bir yaxshi naqshi bor, xushshbat kishi edi. Kushtigirliq bila muncha haysiyatni jam' qilmoq g‘arobati bor [Zahiriddin Muhammad Bobur, 1960:245].

Alisher Navoiy uning uchun maxsus “Holoti Pahlavon Muhammad” asarini yozgan, hazratning qirq yillik eng yaqin do'sti, ustoz, mahrami bo'lgan bu zot tengi yo'q kurashchi, bu sohaning piri, nazariyotchisi bo'lishi bilan birga davrining eng peshvo ilm va san'at kishisi bo'lgan. Musiqa, she'riyat, ilmi nujum va boshqa sohalarda yetuk mutaxassis sanalgan. Shu jihatlari bilan sulton Husayn Bayqaro saroyining eng mo'tabar a'yonlaridan bo'lgan.

Zayniddin Vosifiy “Badoye ul-vaqoye” nomli asarining “Pahlavon Muhammad Abdusaid va sulton Husayn Mirzoning boshqa kurashchilari fazilatlari va kamolati zikrida” nomli fasli mavjud. Asar tafsilotlaridan kurash san'ati kushtigirlik bu paytlarda nechog'li rivoj topgani, unga davlat darajasida e'tibor qaratilgani anglashiladi. Pahlavon Muhammad adabiy, tarixiy asarlarda nomi katta hurmat bilan zikr etilgan.

“Boburnoma”ni o'qir ekanmiz, muallifining hamisha kushtigirlikka alohida e'tibor, mehr-ixlos bilan yondoshganidan, ko'pgina kurashchi polvonlar nomlarini, kurash lavhalarini yozib qoldirganidan, Hindiston fathidan so'ng ham shohning bunda kechgan umri davomida kurashga oshuftaligi faqat ortganidan ogoh bo'lamiz.

Bobur ishtirok etgan to'y-tantanalarda turli hayvon urishtirishlar qatorida albatta kurash musobaqasi uyushtirilgani: “Shanba kuni oying oltisida to'y bo'ldi. Qizilbosh va o'zbek va hindularning elchilari bu to'yda bor erdilar... Oshdin burunroq sochiq kiyurur asnosida mast tevalarni va fillarni o'trudag'i orolda urushqa soldilar. Bir necha qo'chqor ham urushturdilar. Bulardin so'ng kushtigirlar kushti tuttillar” [Zahiriddin Muhammad Bobur, 1960:423-424].

Bobur adolatpesha, saxovatli, mard va g'amxo'r inson edi. Uning bu asl insoniy fazilatlari pahlavonlarga bo'lgan munosabatida ham yaqqol ko'rinadi. Masalan, o'tkazilgan kurash musobaqasida g'olib polvondan tashqari mag'lub tomon ham siylangani shunday tasvirlangan: “Chahorshanba kuni yetti kuruh kelib, Odampur parganasiga tushuldi... Ushbu kun Sodiq bila Kulolni kushtiga solduk. Kulol da'vo bila kelib edi, Ograda kushti tutmoqqa yo'l ko'ftini uzr aytib, yigirma kun muhlat tiladi, Qirq-ellik kun muhlatidin o'tti. Bukun zarur bo'ldi – kushti tutti. Sodiq yaxshi kushti tutti, xili oson yiqti. Sodiqqa o'n ming tanga va egarlik ot va bosh-oyog' va tugmalik chakman in'om bo'ldi. Bovujudkim, Kulol yiqilib edi, ma'yus qilmay, anga ham saru poy va uch ming tanga in'om bo'ldi” [Zahiriddin Muhammad Bobur, 1960:266].

Qiziq fakt. Bir o'lkada, boringki, biror hududda dong'i chiqqan pahlavonga uzoq joylardan boshqa bir polvon talabgor bo'lib kelishi kuzatiladi. Yuqoridagi parchada ham bu hol qayd etilgan. Bobur huzuridagi Sodiq polvonga Kulol polvon da'vo bilan kelgan. U uzoq masofadan kelgan bo'lsa kerakki, yo'l mashaqqatlari yetkazgan charchoqlardan forig' bo'lish uchun kurash oldidan yigirdan kun muhlat so'raydi. Oradan qirq-ellik kun o'tgach, bu kurashga ruxsat berilgan. Garchi mehmon polvon yengilgan bo'lsa-da, u ham shohning iltifotidan bahramand bo'ladi.



Bobur vatan tutgan Hindistonning mahalliy polvonlari ham bu bu musobaqalarda ishtirok etgan: “Seshanba sabohi iyd namozini o‘tab otlanildi... Go‘y suvining yoqasida tushtuk. Namoz diygar kushtigirlar kushti tuttilar. Chahorshanba kuni ul yurtta maqom edi. Bukun kushtigirlar kushti tuttilar. Pahlavon Udiykim, burun kelib edi, bu fursatta kelgan Hindustoniylar kushtigir bila qurashib yiqti” [Zahiriddin Muhammad Bobur, 1960:448].

Xuddi shunday manzarani Vosifiyning yuqorida tilga olingan asarida ham uchratamiz. “Badoye ul-vaqoye”da Husayn Boyqaro kurashchilarining piri Pahlavon Muhammad 17-18 yoshli jiyani Darvyeshalini Iroqdan Xurosonga kurash talabi bilan kelgan yengilmas polvon Ali Rustoiyga qarshi kurashga tayyorlagani va sulton Husayn Mirzo huzurida bel olishgan bu kushtigirlar bahsida Darveshalining qo‘li baland kelgani, u shoh va tomoshabinlarning katta pul mukofotiga sazovor bo‘lganini, shuningdek, Darveshali shuncha masofadan kelgan mehmon kurashchi noumid ketmasin deb, himmat ko‘rsatib, bu pullarni yengilgan raqibiga tutgani hikoya qilinadi. Uzoq yo‘l bosib kelgan kurashchi polvonga xordiq chiqarib, o‘zini tiklab olishi, kurashga tayyor bo‘lish uchun qirq kun muhlat berilgani bu o‘rinda ham zikr qilingan [Zayniddin Vosifiy, 1979:].

Bobur asosan “kushtigirlik” atamasini qo‘llaydi, ba’zi o‘rinlarda “kurash”, “miyongirlik” atamalarini ham ishlatadi. Kurashchi polvon ma’nosida esa “kishtibon”, “kushtigir”, “pahlavon” atamalarini, shuningdek, o‘rni bilan “zo‘r”, “bo‘ka” so‘zlariga ham murojaat qiladi. Kushtigirlarga berilgan mo‘jaz ta’rif va tavsiflardan o‘sha davrdagi kurash ilmining ayrim xususiyatlarini, polvonlarning xulq-atvori, o‘ziga xos uslublarini fahmlash mumkin [Qodirov, 2007:197].

“Gang yoqasig‘a tushuldi... Bir zamon o‘lturub, kema bila ul yuza o‘tub, kushtigirlarni kushtiga solduk. Do‘st Yasinxayrg‘a buyuruldikim, pahlavon Sodiqlar bila tutmay, o‘zgalar bila miyongirlik qilg‘ay. Xilofi qoida buyuruldikim, avval zo‘rroqlarni miyongirlik qilg‘ay. Sekkiz kishini yaxshi miyongirlik qildi” [Zahiriddin Muhammad Bobur, 1960: 443].

Bobur kurashni harbiy tayyorgarlikning bir qismi sifatida ham ko‘radi. Asardagi ba’zi lavhalarda kurash orqali yigitlarning jangga shayligi, epchilligi va tezkor qaror qabul qilish qobiliyati oshirilgani anglashiladi. Shu sababli kurash faqat ko‘ngilochar o‘yin emas, balki amaliy ahamiyatga ega mashq hisoblangan. Shu bois tez-tez bu bellashuv o‘tkazib turilgan: “Kema bila kelib, ozroqcha Karmnos suyi yuqori borib, yana yonib Gangning shimoliy tarafin kechib, suv yoqasida kemalarni turg‘uzduk. Yigitlar bir pora sho‘xluq qildilar, bir pora kushtigirlik qildilar. Soqi Muhsin da’vo qildikim, to‘rt-besh kishini miyongirlik qilurmen. Bir kishi bila tutti, yiqilayozdi. Ikkinchisi Shodmon edi, Muhsinni yiqti. Xijil va munfail bo‘ldi. Kushtigirlar ham kelib, kushti tuttilar” [Zahiriddin Muhammad Bobur, 1960:436].

“Boburnoma”da kurash tushuvchi polvonlar misolida yosh avlodga ibrat bo‘ladigan fazilatlar — halollik, sabr, raqibga hurmat va g‘alaba hamda mag‘lubiyatni munosib qabul qilish kabi qadriyatlar ulug‘lanadi. Bu esa



kurashning jamiyat hayotida faqat sport emas, balki tarbiya vositasi bo‘lganini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, XV–XVI asr o‘zbek adabiy tilining nodir yodgorligi bo‘lgan bu shoh asarda Boburning yuksak badiiy mahorati, sodda va tushunarli tili uslubining o‘ziga xos betakror go‘zalligi o‘z aksini topgan. “Boburnoma” asarida kurash tushuvchi polvonlar Bobur qo‘shinining, xalqning jismoniy va ma’naviy kamoloti timsoli sifatida tasvirlangan. Boburning kurashga bo‘lgan e’tibori orqali biz o‘sha davrda sport, ayniqsa milliy kurashning harb va zarbda, jamiyat hayotida tutgan o‘rnini yanada yaxshiroq anglaymiz. Asar bugungi kunda ham milliy sport an’analarimizni o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

- 1.Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. -Toshkent: Fan, 1960. -513 b.
- 2.Zayniddin Vosifiy. “Badoye ul-vaqoye / forschadan N.Norqobilov tarjimasini. Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1979.
- 3.Qodirov M. Temuriylar davri tomosha san’atlari.Toshkent: “San’at” jurnali, 2007. -216 b.
- 4.Hasanov S. Zahiriddin Muhammad Bobur. Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2011.